

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№12 – SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, DEKABR



OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

"Tadbirkor va ishbilarmon" MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, "Marketing" kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU "Marketing" kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, "Marketing" kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, "Innovatsion menejment" kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, "Axborot texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, "Menejment" kafedrasini mudiri, dotsenti;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, "Yashil iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abdavaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, "Turizm va servis" kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Bo'laev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti "Iqtisodiyot va bo'chmas mulkni boshqarish" kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, "Menejment" kafedrasini dotsenti;

Maxmudov Toxirjon Olimjonovich, PhD., NamDTU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsent v.b.

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Ikromov Axmadjon Shavkat o'g'li, PhD., Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Ekonometrika va iqtisodiy modellashirish kafedrasini katta o'qituvchisi

Elektron nashr 655 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 25-dekabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA “YASHIRIN” HAMDA “XUFYONA” IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH ZARURATINING EMPERIK TAHLILI	7
Nazarova Ra’no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o’g’li	
O’ZBEKISTONDA TIKUV KIYIMLARI BOZORINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	23
Soliyev Axmadjon, Maxkamov Iqboljon	
IQTISODIY FAOLLIKNI BAHOLASHDA ILG’OR YONDASHUVLAR HAMDA O’ZBEKISTONDA BIZNES FAOLLIGI INDEKSINI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	32
Jumayev Olimjon Sadulloyevich, To’ymatov Muzaffarjon Yoqubjon o’g’li	
FIRIBGARLIK HOLATLARINI AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI ORQALI ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI	40
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
SANOAT TARMOG’INI RIVOJLANISHINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	47
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO’QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISHGA ZAMONAVIY USLUBIY YONDASHUVLAR	56
Yusupova Feruza Yo’ldosheva	
IQTISODIY ISLOHATLARNING MILLIY MODEL VA YANGI O’ZBEKISTON STRATEGIYASI ...	62
Srajdinova Nodira Shavkatovna	
TEMIRYO’L TRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O’RNI.....	69
Eshboyev Ulug’bek Farxodovich	
PAXTA-TO’QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI	76
Yusupova Feruza Yo’ldosheva	
O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VAKOLATLI IQTISODIY OPERATORLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH	81
Ismatullayeva Shoiri Nurlibekovna	
SANOAT KORXONALARI DEMOGRAFIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIKGA TA’SIRINING EKONOMETRIK MODELLARI	92
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
O’ZBEKISTONDA LIZING XIZMATLARI KO’RSATISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	100
Xolov Bahodir O’ktamovich	
O’ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI.....	107
Qo’ziboyev Umarbek Ulug’bekovich	
OLIY TA’LIM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGNING O’RNI.....	114
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА К ПРИЁМУ ПОСЕТИТЕЛЕЙ	121
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
MINTAQANING QURILISH TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH NAZARIYALARI.....	134
Aminov Sardorbek Sanjarbekovich	
MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHDA MAHSULOT BOZORI REGULYATORI TIZIMINI QO’LLASHNING AXAMIYATI.....	139
Rustamov Narzillo Istamovich	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДОВЕРИЯ К ТОВАРАМ НА РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКАХ.....	147
Абдурашидова Нигора Алишеровна, Кахрамонова Шахзода Дилмурод кизи, Болтаева Севинч Учкун кизи	
XIZMAT KO’RSATISH SOHASIDA STRATEGIK MENEJMENTNING ROLI VA AHAMIYATI	158
Alimova Dildora Damirovna, Aslonov Abdulla Xolmurodovich	

ICHKI AGRAR BOZOR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ORQALI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH YO‘LLARI	169
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNINGNI JORIY ETISH ORQALI TO‘QIMACHILIK SANOATINING RAQOBATBARDOSHLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH	174
Xakimova Zebinisa Muzaffarovna	
MINTAQADA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	182
Abdullayeva Zulfiya Sadullayevna	
ВЛИЯНИЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГА И ИНСТРУМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВОЙ РЕКЛАМЫ.....	187
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Халикова Доно Джахангировна, Шавкатова Шахзода Шухратовна	
OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA TA’SIRINI BAHOLASH.....	202
Zaxidova Umida Farxodovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЕСТОРАННОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ ВНЕДРЕНИЕ И ПРОДВИЖЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ УСЛУГ	216
В.И. Назаров	
QURILISH TARMOG‘IDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA SOXANI RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA’SIRI	225
Arifdjanova Zilola Dilshodovna	
MINTAQADA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI OQIMLARINI TA’MINLASH YO‘LLARI.....	234
Zakirov Mir Timur Zakir o‘g‘li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УКРАИНЕ И УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОСТИ.....	242
Вдовиченко Лариса Юрьевна, Азизова Сайёра Хамидуллаевна	
ВЛИЯНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ НА УСТОЙЧИВОСТЬ И ИННОВАЦИОННОСТЬ ТРАНСПОРТНЫХ КОМПАНИЙ УЗБЕКИСТАНА	253
Кадирова Шарофат Амоновна	
РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УСИЛЕНИИ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ ЛОЯЛЬНОСТИ.....	272
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Ж.Ж. Буриева, З.А. Юсупбекова	
ВЛИЯНИЕ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИКУ СТРАНЫ	282
Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи	
TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA KPI TIZIMINI QO‘LLASH.....	290
Mahmudova Dilafruz Hasanovna	
FACTORS AND METHODOLOGICAL APPROACHES INFLUENCING THE INNOVATION MANAGEMENT MECHANISM IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.....	299
Karimov Muzaffar Abdumalik ugli	
CRM-УПРАВЛЕНИЕ В СЕТЕВЫХ СУПЕРМАРКЕТАХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН: РОЛЬ КЛИЕНТСКИХ ДАННЫХ, ПРОГРАММ ЛОЯЛЬНОСТИ И ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ	305
Юсупов Улугбек Шукруллаевич	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHDA CRM TIZIMLARINING O‘RNI	314
Xayitaliyev Nazirjon Yunusaliyevich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARI TA’MINOT TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	323
Abduxalilova Laylo To‘xtasinovna	
O‘ZBEKISTONDA UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH	333
Raimov Otamurod Xolmurotovich	

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT DASTURLARINING MOLİYAVIY IJROSINI TA’MINLASHDA MARKETINGDAN FOYDALANISH: EMPIRIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL.....	340
Primova Nigora Ikrom qizi	
HUDUDIY KICHIK SANOAT ZONALARINING SAMARADORLIGINI INTEGRALLASHGAN INDIKATORLAR TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH	346
Jalolova Sarvinoz Ulug‘bek qizi	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA EKOLOGIK VA INNOVATSION OMILLAR TA’SIRI	356
Akramov Bo‘ribek Faxriddin o‘g‘li	
MINTAQADA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINING TUTGAN O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	367
Boltayev Mag‘rurbek Allayarovich	
OLIY TA’LIM MUASSASASIDA ZAMONAVIY MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIXATLARI.....	374
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNI BAHOLASH.....	381
Achilov Ilmurad Nematovich	
O‘ZBEKISTON OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA STRATEGIK BOSHQARUV VA INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR	391
Tuychieva Begoyim Voxidjon qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARI MARKETING FAOLIYATIDA MOTIVATSIYA YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH	400
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TOURISM AND HOSPITALITY: A COMPARATIVE ANALYSIS AND ROADMAP FOR UZBEKISTAN.....	407
Safaeva Sayyora Rixsibayevna	
THE EVOLUTION AND METHODOLOGICAL INTEGRATION OF THE CONCEPT OF SUSTAINABLE USE	417
Kilichov Mukhriddin	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI STRATEGIK BOSHQARISHNING MAZMUNI, ASOSIY PRINSIPLARI VA FUNKSIONAL VAZIFALARI.....	433
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	
BUXORO VILOYATI TURIZM XIZMATLARI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	442
Jalolov Otabek Oybek o‘g‘li	
OLIY TA’LIMDAGI BAHOLASH TIZIMI BO‘YICHA ISHONCH DARAJASINI ANIQLASH VA ISHONCH INDIKATORLARINI HISOBLASH METODLARI	451
Hakimov Hakimjon Abdullo o‘g‘li, Hakimova Gulnora Abdullo qizi	
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL TA’LIM PLATFORMALARINING ROLI	459
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY AXBOROTLARNI O‘RNI.....	467
Samatov Azizbek Abdulaxatovich	
MOYLI EKINLAR YETISHTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....	473
Valiyeva Aziza Anvar qizi	
THE ECONOMIC AND ENVIRONMENTAL EFFICIENCY OF AGRIVOLTAIC SYSTEMS IN UZBEKISTAN’S AGRICULTURAL SECTOR	481
Amonov Sardor Zamon ugli	
AMORTIZATSIYA QILINADIGAN AKTIVLAR VA ULARNI HISOBGA OLIHNING OBYEKTIV ZARURATI.....	490
Aminboyev Jaloliddin Otabek o‘g‘li	

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA MARKETING JARAYONLARINI YO'LGA QO'YILGANLIK HOLATI VA RIVOJLANISH VEKTORLARI.....	500
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	508
Salomova Sarvinoz Salimovna	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI.....	515
Muxamedova Aziza Ravshanovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIIY-STATISTIK TAHLILIGA DOIR.....	523
Saburov Jumanazar Saliyevich	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РЕСУРСА (HR) В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	531
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Урозбоев Хайрулла Муродбой угли, Умаров Фаёзбек Суннатилла угли	
MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH USULLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..	542
Djumanov Saitmurod Alibekovich	
TADBIRKORLIKDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH VA MENEJMENTNING O'ZARO TA'SIRI	549
Sultonboyeva Munira Baxodirovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA TOVAR ZAXIRALARINI BOSHQARISH MASALALARI	558
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
IQTISODIIYOTDA TARKIBIIY O'ZGARISHLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	566
Ochilov Akram Odilovich, Qo'ziboyeva Nargiza Hamro qizi	
JOZIBADOR TURISTIK MAHSULOTLARNI SHAKLLANTIRISH VA SIFATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	574
Mirzabayev Jamshid Irkinovich	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI.....	581
Gafurov Anvar Bazarbayevich	
ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УПРАВЛЕНИИ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ	591
Тарават Абдул Салам	
INNOVATSION IQTISODIIYOT SHAROITIDA QAYTA SUG'URTALASH INSTITUTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI VA YO'NALISHLARI	603
Sherov Sanjar Radjabovich	
BANKLAR VA MARKETING SIYOSATI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	613
Boboxo'jayeva Fotima Kaxramonovna	
ВЛИЯНИЕ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИКУ СТРАНЫ	619
Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи	
O'ZBEKISTONDA BIZNES VA TADBIRKORLIK: HOZIRGI HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	626
Ravshanov Azizbek Ravshanovich	
OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIRI: NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA KO'P OMILLI EKONOMETRIK BAHOLASH	634
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
MINTAQA SANOAT TUZILMASINING STRUKTURAVIY O'ZGARISHLARI VA IQTISODIIY O'SISH DINAMIKASI TAHLILI.....	644
G'aymatova Dilafro'z G'ofurjonovna	

SANOAT TARMOG'INI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muxtarov Maxmudjon Marifovich

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti

E-mail: m.m.muxtorov@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston sanoat tarmoqlarining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot sanoatning tarkibiy tuzilishi, hududiy ixtisoslashuvi, innovatsion jarayonlar va raqamlashtirish yo'nalishlari asosida amalga oshirildi. Iqtisodiy salohiyat, texnologiyalar transferi, investitsiya muhiti va kadrlar tayyorlashning sanoat rivojiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, sanoat sohasidagi mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilindi. Mavzu milliy iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun sanoat siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari sanoatni modernizatsiya qilish, klasterlar va kooperatsiyalarni rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: sanoat tarmog'i, hududiy ixtisoslashuv, innovatsiya, raqamlashtirish, texnologik transfer, investitsiya muhiti, kadrlar tayyorlash, klasterlar, kooperatsiya, eksport, diversifikatsiya, iqtisodiy salohiyat, barqarorlik, mashinasozlik, kimyo sanoati, qayta ishlash, energiya samaradorligi, davlat siyosati, industrial siyosat.

Аннотация

В статье проведён глубокий анализ специфических особенностей развития промышленного сектора Узбекистана. Исследование охватывает структурный состав промышленности, территориальную специализацию, инновационные процессы и цифровизацию. Рассматривается влияние экономического потенциала, трансфера технологий, инвестиционной среды и подготовки кадров на развитие отрасли. Анализируются существующие проблемы и возможные пути их решения. Тема имеет важное значение для повышения устойчивости и конкурентоспособности национальной экономики через совершенствование промышленной политики. Результаты исследования включают практические рекомендации по модернизации промышленности, развитию кластеров и кооперации, внедрению новых технологий.

Ключевые слова: промышленный сектор, территориальная специализация, инновации, цифровизация, трансфер технологий, инвестиционная среда, подготовка кадров, кластеры, кооперация, экспорт, диверсификация, экономический потенциал, устойчивость, машиностроение, химическая промышленность, переработка, энергоэффективность, государственная политика, промышленная политика.

Abstract

This article presents an in-depth analysis of the distinctive features of the development of Uzbekistan's industrial sector. The study covers the structural composition of the industry, territorial specialization, innovation processes, and

digitalization. It examines the impact of economic potential, technology transfer, investment environment, and workforce training on sector development. Existing challenges and possible solutions are analyzed. The topic is vital for enhancing the sustainability and competitiveness of the national economy by improving industrial policy. The research findings offer practical recommendations on industrial modernization, cluster and cooperation development, and the implementation of new technologies.

Keywords: industrial sector, territorial specialization, innovation, digitalization, technology transfer, investment environment, workforce training, clusters, cooperation, export, diversification, economic potential, sustainability, machinery manufacturing, chemical industry, processing, energy efficiency, state policy, industrial policy.

KIRISH

Sanoat tarmog'i har qanday mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. U nafaqat iqtisodiyotda qo'shilgan qiymatni yaratish, balki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda eksport salohiyatini oshirishda asosiy drayver hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy sharoitlarda raqobatbardoshlikni saqlab qolish va global bozorlarda o'rin egallash uchun sanoat tarmoqlarini samarali va barqaror rivojlantirish zarur.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham sanoat tarmoqlarining ulushi va ahamiyati so'nggi yillarda sezilarli darajada oshib bormoqda. Xususan, 2024-yilda mamlakat miqyosida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat mahsulotlarining ulushi 25,1 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 101,6 foizni tashkil etgan, Andijon viloyatida esa YAHM tarkibida sanoat mahsulotlarining ulushi 2024-yilda 28,8 foizga teng bo'lgan [1]. Demak, aholining iste'mol talabini qondirish, eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishda sanoat tarmoqlarining roli tobora oshib bormoqda. Mazkur o'sish tendensiyasi, jumladan, qayta ishlash, mashinasozlik, yengil va kimyo sanoatida kuzatilmoqda. Shu bilan birga, hududlar kesimida sanoat mahsulotlarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi ortib borayotgani iqtisodiyotning diversifikatsiya holati, mintaqadagi infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi va investitsion muhitning yaxshilanishi bilan bevosita bog'liq.

Bundan tashqari, sanoat tarmoqlarida yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan sohalarni rivojlantirish orqali eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, shuningdek, ichki bozorda import o'rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarish hajmini oshirish strategik maqsad sifatida belgilab olinmoqda. Ayni paytda davlat siyosatida tarmoqlararo kooperatsiyani kuchaytirish, sanoatni raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu boisdan, sanoat tarmoqlarining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish va ularni raqobatbardoshlikka olib keluvchi strategik yo'nalishlarni belgilash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa milliy sanoat siyosati va iqtisodiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirishga, shuningdek, investitsiyaviy va texnologik salohiyatni oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda,

sanoat tarmoqlarining barqaror va uzluksiz rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, tashqi iqtisodiy faollikni kuchaytirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur holatlar va tendensiyalarni teranroq tahlil etish hamda ularning iqtisodiy tizimdagi o'rnini va ahamiyatini to'liq anglash maqsadida ilmiy-metodologik yondashuvlarga asoslangan adabiyotlar tahlili alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi PF-6-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi¹, 2024-yil 1-maydagi PF-71-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi² Farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori³ bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga muvofiq, viloyatlarda sanoat zonalarini tashkil etish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish hamda uni chuqur qayta ishlash orqali sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha keng imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Mazkur jarayon mavjud resurslardan oqilona foydalanish asosida sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Natijada hududlarda sanoat salohiyatining oshishi, eksport ko'lamining kengayishi va iqtisodiy faollikning ortishi kuzatilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat sohasini rivojlantirishning dolzarbligi hamda uning iqtisodiyotni takomillashtirishdagi o'rnini doimo tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Ushbu masala yuzasidan xorijiy olimlar D. North [4], Rui Xie [5], Xiaojuun Deng [6], Muhammad Salman, Yuanxiang Zhou, Huayan Liu, Chan Chen [7] hamda M. Djordj [8] sanoat rivoji va innovatsion omillarning o'zaro ta'siri bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Mahalliy olimlardan M. Isaqov, D. Ro'ziyeva, B. X. Mirzayev [9] hamda A. N. Nazarov [10] o'z ishlarida O'zbekiston sanoatida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, innovatsion yondashuvlar va hududiy sanoat klasterlarining shakllanish jarayonini atroflicha tahlil qilganlar. Ular hozirgi islohotlarni iqtisodiy tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'lab, mahalliy ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va ichki bozorda raqobatni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, Z. Jamolova [11], B. Qulmurotov [12], X. Abdunoazarova [13] va B. Rajabovlar o'z tadqiqotlarida sanoat tarmoqlarining hududiy rivojlanishiga, resurslardan samarali foydalanishga va sanoatni modernizatsiyalash jarayoniga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi PF-6-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7330228>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6908347>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6600390>

e'tibor qaratgan. Biroq ushbu tadqiqotlarda sanoat tarmoqlari o'rtasidagi innovatsion integratsiya, global qiymat zanjirlariga kirish imkoniyatlari va sanoat siyosatining eksportga yo'naltirilgan strategiyalari kabi masalalar hali yetarli darajada chuqur o'rganilmagan bo'lib, bu yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish zarur.

METODOLOGIYA

Sanoat tarmog'ining rivojlanish jarayonlarini tizimli o'rganish, uning hududiy, tarmoqlararo hamda iqtisodiy tarkibiy o'zgarishlardagi o'rnini aniqlash, shuningdek, ushbu rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini kompleks tarzda tahlil qilish uchun zamonaviy metodologik yondashuvlarni qo'llash zarur hisoblanadi. Xususan, sanoat tarmoqlarining mintaqaviy kesimda shakllanishi va rivojlanish holatini baholash, ularning faoliyatini samarali tashkil etish, shuningdek, yuqori darajada ixtisoslashtirish darajasini aniqlash orqali hududiy-iqtisodiy transformatsiyaning real holatini aniqlash mumkin. Mazkur yondashuv sanoat tarmoqlarida tarkibiy siljishlarni amalga oshirish va hududlararo iqtisodiy muvozanatni ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim bo'lib, ayniqsa, ixtisoslashuv darajasini chuqur o'rganish va tahlil qilish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish va hududlar raqobatbardoshligini oshirishda katta amaliy ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin (1).

$$K_{sd} = \frac{\frac{v_{sk}}{v_k}}{\frac{v_s}{v_{yk}}} \quad (1)$$

Bu yerda:

K_{sd} – ixtisoslashtirish darajasi;

v_{sk} – k-mintaqa sanoat mahsuloti hajmi;

v_k – k-mintaqadagi YHM hajmi;

v_s – mamlakat sanoat mahsuloti hajmi;

v_{yk} – mamlakatdagi yalpi ichki mahsulot hajmi.

Ushbu formula mintaqadagi sanoat tarmog'ining umumiy hududiy iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlash bilan birga, mazkur tarmoqning mamlakat miqyosidagi iqtisodiy ahamiyatini ham kompleks tarzda baholash imkonini beradi. Tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashuv darajasini aniqlash orqali ularning nisbiy samaradorligini tahlil qilish, resurslarni hududlar kesimida oqilona taqsimlash, investitsion faoliyatni maqsadli yo'naltirish va mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan maksimal darajada foydalanish imkoniyati yaratiladi. Bunday yondashuv, ayniqsa, yuqori iqtisodiy samara berayotgan tarmoqlarni aniqlash hamda ushbu tarmoqlar asosida raqobatbardosh sanoat klasterlarini shakllantirish jarayonlarini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ushbu ko'rsatkichlar asosida hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish, professional kadrlar tayyorlash markazlarini tashkil etish, ilmiy asoslangan sanoat siyosatini shakllantirish va hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati vujudga keladi. Tahlil natijalari esa, o'z navbatida, mintaqaviy ixtisoslashuvga asoslangan sanoat siyosatini takomillashtirish hamda hududiy

rivojlanish dasturlarini puxta rejalashtirish uchun muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, sanoat tarmoqlarining hududiy kesimda shakllanishiga oid statistik ko‘rsatkichlar ularning real iqtisodiy salohiyatini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda O‘zbekiston sanoat sohasi iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan modernizatsiya qilish, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish, hududlararo ishlab chiqarish muvozanatini ta‘minlash kabi ustuvor yo‘nalishlarda jadal rivojlanmoqda. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2023-yilga nisbatan 23,4 foizga ortgan bo‘lsa, Andijon viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 90 627,9 mlrd so‘mni tashkil etgan va 2023-yilga nisbatan 22 foizga oshgan. Ushbu o‘shishning asosiy omillari sifatida ishlab chiqarishning hududiy diversifikatsiyasi, kichik sanoat zonalarida yangi quvvatlarning ishga tushirilishi va mahalliy lashtirish darajasining ortishi bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Sanoat tarkibida mashinasozlik va metallga ishlov berish tarmog‘i 11,3 %, kimyo va neft-kimyo sanoati 8,7 %, elektrotexnika sanoati esa 7,5 % ulushga ega bo‘lib, bu tarmoqlarning izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, energetika va yoqilg‘i-energiya resurslari sohalarida mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanilmasligi kuzatilmoqda. Masalan, energetika tarmog‘ida quvvatlardan foydalanish darajasi 68–72 % atrofida bo‘lib, bu tarmoqning to‘liq yuklama bilan ishlamayotganidan dalolat beradi.

Eksport tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, sanoat mahsulotlari eksporti umumiy eksport hajmining qariyb 26,9 % ini tashkil qilmoqda. Bunda to‘qimachilik, avtomobilsozlik, rangli metall, oziq-ovqat va farmatsevtika mahsulotlari yetakchi o‘rinda bormoqda. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida Andijon viloyatining sanoat salohiyati hamda mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi yildan-yilga ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu tendensiyaning quyidagi jadvalda sanoat mahsulotlarining yalpi ichki mahsulot (YaIM) hamda Andijon viloyati yalpi hududiy mahsuloti (YaHM)dagi ulushi dinamikasi misolida yaqqol ko‘rish mumkin (1-jadval).

1-jadval.


Yalpi ichki mahsulotda va yalpi hududiy mahsulotda sanoat mahsulotlarini salmog‘i¹

Yillar	Sanoat mahsulotlarini YaIMdagi ulushi	Andijon viloyatida sanoat mahsulotlarini YaHMdagi ulushi
2015	17,4	16,0
2017	18,8	14,4
2020	24,8	22,3
2021	25,3	19,9
2022	24,8	23,9
2023	24,7	27,8
2024	25,1	28,8

¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

2015–2024-yillar davomida sanoat mahsulotlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 17,4 foizdan 25,1 foizgacha oshgan bo‘lib, bu milliy iqtisodiyotda sanoatning ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Andijon viloyatida sanoat mahsulotlarining yalpi hududiy mahsulotdagi salmog‘i 2015-yildagi 16,0 foizdan 2024-yilda 28,8 foizgacha oshgan. Bu esa mazkur viloyatda sanoat tarmog‘ining jadal rivojlanayotganini anglatadi. 2017-yilda Andijon viloyatining ko‘rsatkichi respublika ko‘rsatkichidan past bo‘lgan bo‘lsa, 2023–2024-yillarda viloyat indikatorlari milliy o‘rtacha darajadan sezilarli darajada yuqoriligi bilan ajralib turadi. 2021-yilda viloyatda sanoat ulushining qisqarishi kuzatilgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda bu holat ijobiy tomonga keskin o‘zgargan. Ushbu o‘zgarishlar sanoatni hududiy diversifikatsiya qilish, ixtisoslashtirilgan klasterlar tashkil etish va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Yuqorida keltirilgan (1)-formula asosida Andijon viloyati sanoatining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini baholash natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda ushbu hududda sanoat tarmoqlari barqaror va izchil rivojlanmoqda hamda ularning respublika iqtisodiyotidagi ulushi ortib bormoqda (1-rasm).



1-rasm. Andijon viloyati sanoatini ixtisoslashganlik koeffitsiyenti¹

Andijon viloyati sanoatining ixtisoslashganlik koeffitsiyenti so‘nggi yillarda barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etmoqda. Bu holat viloyat sanoatining muayyan tarmoqlarga chuqur ixtisoslashuvi va ularning milliy darajadagi ulushining ortib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, mashinasozlik, elektrotexnika va to‘qimachilik sanoatlari bo‘yicha ixtisoslashuv ko‘rsatkichlarining yuqoriligi viloyatning ushbu yo‘nalishlarda yetakchi o‘rinda ekanini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida Andijon viloyati sanoatini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini baholash uchun SKORO tahlili amalga oshirilib, mazkur hududning ichki salohiyati, mavjud imkoniyatlari, shuningdek, ular oldida turgan muammo va xavf-xatarlar aniqlandi. Ushbu tahlil sanoatni kompleks rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

¹ Muallif ishanmasi

2-jadval.

Andijon viloyati sanoatini ixtisoslashganlik darajasini SKORO tahlili¹

S - Kuchli tomonlari: Andijon viloyati sanoatining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 28,8% ga yetgani, bu viloyatda sanoat sektori rivojlanishi jadalligini ko'rsatadi. Mashinasozlik, elektrotexnika va to'qimachilik kabi muhim tarmoqlarda yuqori ixtisoslashuv va yuqori samaradorlik. Kichik sanoat zonalarini va mahalliyashtirish darajasining oshishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi. Eksportda sanoat mahsulotlari ulushining o'sishi (26,9%) va raqobatbardosh klasterlarning shakllanishi.
K - Zaif tomonlari: Energetika va yoqilg'i resurslaridan to'liq foydalanilmasligi (68-72% quvvat) natijasida ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi. Hududda sanoat infratuzilmasi va innovatsion texnologiyalarning to'liq joriy etilmaganligi. Iqtisodiy va ishchi kuchining malakasini yanada oshirishdagi muammolar.
O - Imkoniyatlar: Milliy va xalqaro investitsiyalarni jalb etish imkoniyati. Sanoat klasterlari va eksport salohiyatini yanada kengaytirish. Mahalliy xom ashyodan samaraliroq foydalanish va mahsulotni yuqori qiymatli tovarlarga aylantirish. Raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.
R - Xavf-xatarlar: Energetika resurslari yetishmovchiligi yoki noqonuniy foydalanish. Hududlararo iqtisodiy tafovutlarning kengayishi va ishlab chiqarish muvozanatining buzilishi. Mehnat bozorida kadrlar tanqisligi va salohiyatli mutaxassislarning boshqa hududlarga yoki chet elga ketishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

SKORO tahlili natijalariga ko'ra, Andijon viloyati sanoati yuqori ixtisoslashuv va eksport salohiyatiga ega bo'lib, hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq energiya resurslari va ishchi kuchi malakasini oshirishdagi kamchiliklar sanoat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Innovatsiya va modernizatsiyaga yo'naltirilgan investitsiyalar sanoatni yanada rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, energetika sektorida investitsiyalarni jalb qilish va ilg'or energiya tejash texnologiyalarini joriy etish orqali ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishni ta'minlash, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va avtomatlashtirishni kengaytirish, mahalliy kadrlar malakasini oshirish uchun kasb-hunar maktablari, oliy ta'lim muassasalari va sanoat korxonalari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, xalqaro

¹ Muallif ishlanmasi

hamkorlik va texnologiya almashinuvini rivojlantirish hamda innovatsion ishlanmalarni sanoatga joriy etishni rag'batlantirish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi PF-6-sonli “To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-7330228>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-sonli “To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6908347>
4. D.North “Institutions, Institutional Change and Economic Performance”. – Cambridge University Press, 1990 y. p 5-7.
5. Rui Xie, Xiaojuun Deng, Yuanxing Yin “Economic viability of high-performance cycle systems: Energy and cost efficiency insights”. Energy Strategy Reviews journal homepage: www.elsevier.com/locate/esr
6. Muhammad Salman “Exploring economic and cargo efficiencies in the global shipping sector: A convergence analysis”. Journal of Cleaner Production 501 (2025) 145298 p. 1-17.
7. Yuanxiang Zhou a, Huayan Liu a, Chan Chen a “The impact of digital inclusive finance on green economic efficiency: Pathways to inclusive sustainability”. Research in International Business and Finance journal homepage: www.elsevier.com/locate/ribaf.
8. М Джордж. “Бережливое производства + шесть сигм в сфера услуг”. Перевод с английского. М. 2017 г.
9. Mirzayev B.X. Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 184 b.
10. Nazarov A.N. O'zbekistonda sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasi // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – №2. – B. 45-51.
11. Kalmuratov B., Madenova E., Urazbaeva L., Kaypnazarova G. The Main Directions of Development of Industrial Sphere of the Republic of Uzbekistan // International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – Vol. 29, No. 7s. – P. 2681-2687.
12. Abdinazarova Kh.O. Stages of Development of Uzbekistan Industry and Changes in It // European Journal of Humanities and Educational Advancements. – 2023. – Vol. 4, No. 5. – P. 86-89.
13. Radjabov B.A. Evaluation of Industry Tendencies in Uzbekistan // International Journal of Innovation in Natural Sciences. – 2023. – Vol. 2, Issue 3. – P. 18-23.
14. Anafiyaev A. Artificial Intelligence in Uzbekistan Industry: Prospects and Challenges // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2023. – Vol. 4, Issue 8. – P. 52-58

15. Marifovich, M. M. (2023). The effect of product diversification on the economic efficiency of industrial enterprises. *Deutsche Internationale Zeitschrift für Zeitgenössische Wissenschaft*, (68).

16. Mukhtarov, M. (2023). Ways to increase the economic efficiency of textile industry enterprises based on product diversification. *Economics and Education*, 24(5), 274-278.

17. Marifovich, M. M. (2022). Means to increase efficiency in industrial production. *Confrencea*, 6(6), 104-107.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**